




YIG'ILISH BAYONI

“30” yanvar 2026 yil

Olmaliq shahri

Yig'ilish raisi: Z.Po'latov- Komlaens tavakkalchilik bloki Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassis.

Qatnashdilar: “O'zmilliybank” AJ Tashkent viloyati Bosh boshqarmasi Olmaliq BXO mudiri va boshqa xodimlar qatnashdilar. 11 nafar

Kun tartibiga qo'yilgan masala:

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida bank xodmlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murossasiz munosabatni shakllantirish va malakasini oshirish.

Yig'ilishni O'zmilliybank AJ Komlaens tavakkalchilik bloki Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Z.Po'latov ochib, yig'ilish qatnashchilariga kun tartibidagi masala bilan tanishtirdi.

O'z so'zida 2026 yilda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ishlar yuzasidan to'xtalib, kredit chiqarish, monitoring olib borish va muammoli kreditlarni unidirish bo'yicha tekshiruvlarda bank xodimlarining xato kamchiliklarini aytib, ularga bunday xolatga tushmasliklari uchun tavsiyalarini berib o'tdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z Murojaatlaridagi belgilab berilgan ustuvor vazifalar tinglovchilarga yetkazib o'tildi.

Bunda banklarda qaror qabul qilishda inson omilini qisqartirish, kredit ajratishda adolat, xolislik va iqtisodiy asoslanganlik, rahbar va mas'ul xodimlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, manfaatlar to'qnashuviga mutlaqo yo'l qo'ymaslik, korrupsiya holatlarini yashirish emas, balki barvaqt aniqlash va oldini olish.

Shu bilan birga Bank qonunlarida xodimlarga belgilab berilgan talablari ya'ni, mijozlar bilan muloqotda bo'lganda xushmuomalalik bilan gaplashish, fuqarolarga qo'pollik qilmasdan ularning bank sohasidagi og'irini yengil qilish, me'yoriy hujjatlar va boshqa qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik yuzaga kelishi, bank mijozlari bilan valyuta amaliyotlari, kredit ajratilishi, kredit ta'minotini rasmiylashtirish va boshqa xizmatlar ko'rsatishda vakolat doirasidan chetga chiqmaslik, xizmat vazifasini suiste'mol qilmaslik, bank xizmatlari ko'rsatishda ta'magirlik, pora olish va berishda ishtirok etmaslik, qonunbuzilish holatlari oldini olish, bank siri talablarini buzmaslik, ishda ma'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy rioya etish talab qilindi.

Shuningdek, Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlardan ochiq xizmat xatlarida, maqolalarda, ma'ruzalarda foydalanmaslik, aloqa kanallari orqali bank siri haqida gapirmaslik, ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha amaldagi qonunchilik va mazkur majburiyatnoma talablarini bajarish lozimligi aytib o'tildi.

Barcha xodimlarni qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik yuzaga kelishi, xizmat vazifasini suiste'mol qilmaslik, bank xizmatlari ko'rsatishda ta'magirlik, pora olish va berishda ishtirok etmaslik, qonunbuzilish holatlari yuzaga kelganda Toshkent viloyati Bosh boshqarmasi Xavfsizlik bo'limiga o'z vaqtida habar berish, qonunbuzilish holatlari bo'yicha tegishli javobgarlik choralari to'g'risida har bir xodimni ogohlantirildi.

So'z yakunida Olmaliq BXO mudiri U.Umarov jamoa o'z faoliyatida halol, vijdonan va ochiq biznes yuritishning yuqori me'yorlariga amal qilishimiz, korrupsiyani har qanday shakl va ko'rinishlarda rad etish prinsipiga rioya qilishimiz va jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyat darajasini oshirishga hissa qo'shishni o'z bo'rchimiz deb bilshimiz kerakligi to'g'risida yetkazdi.

Seminar yakuniga ko'ra quyidagi vazifalar belgilandi:






1. Yig'ilishda yetkazilgan ma'ruzalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mijozlar bilan munosabatlarda korrupsiyaviy harakatlarning kelib chiqishini oldini olish, hamda har bir bunday holatlar bo'yicha O'zmilliybank AJ Komlaens tavakkalchilik bloki Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Z.Po'latovga axborot berish ta'minlansin.
3. Ushbu seminar-yig'ilish bayoni bilan barcha xodimlari shaxsiy imzosini qo'ygan holda tanishtirilsin.

Bayonlashtiruvchi



S.A.Saidxonov

Olmalig BXO da o'tkazilgan ____ sonli majlis bayoniga ilova

№	Tanishtirildi	Imzo
1	Qirkomolov M. M.	
2	Saidxonov C. A.	
3	Aykanunov V. A.	
4	Bekmatova M. M.	
5	Asqarov O. S.	
6	Batkhova T. B.	
7	Shavkatova F. M.	
8	Dokmatunayev Z. M.	
9	Akmalov A. A.	
10	Malishev M. M.	
11	Turgunov I. M.	
12		
13		
14		
15		
16		
17		
18		
19		
20		
21		
22		
23		
24		
25		
26		
27		
28		
29		
30		
31		
32		

